

Fanlar akademiyasi prezidenti Xorazm Ma'mun akademiyasi jamoasi bilan uchrashdi

2021-yil 1-aprel kuni Xorazm Ma'mun akademiyasiga O'zR FA prezidenti, akademik B.Yuldashev hamda vitse-prezident S.Mirzayev tashrif buyurishdi va ilmiy natijalar, yosh olimlar tadqiqotlari, ilmiy ishlanmalari bilan tanishdi. So'ngra Akademiya jamoasi bilan uchrashuv tashkil qilindi.



Uchrashuvda Xorazm Ma'mun akademiyasining ilmiy xodimlari, doktorantlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etishdi. Dastlab, Xorazm Ma'mun akademiyasi raisi I.Abdullayevning hisoboti tinglandi.

So'ngra, B.Yuldashev mamlakatimizda Prezident Sh.Mirziyoev boshchiligida ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yosh olimlarga, tadqiqotchilarga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, Xorazm Ma'mun akademiyasida yaxshilangan shart-sharoitlar, imkoniyatlar va erishilgan yutuqlar xususida gapirdi. Shuningdek, har bir olimning o'z sohasi bo'yicha natijalarga erishuvi, oldinda turgan vazifalar xususida ham alohida to'xtalib o'tdi.

Har bir tadqiqot ishi birinchi navbatda amaliyotga xizmat qilishi, undagi mavjud muammolarni bartaraf etishning aniq yo'nalishlarini ko'rsatib berishi, fan sohasidagi har bir yo'nalishning istiqboldagi takomiliga hissa qo'shishi lozim ekanligini ta'kidladi. Xorazm Ma'mun akademiyasida paxtaning hosildor yangi navi bo'yicha olingan natijalarini alohida qayd etdi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi tadqiqotlari asosida chop etilgan nashrlarni e'tirof etdi.

Yosh olimlar, tadqiqotchilar bilan alohida suhbat uyushtirib, ularni qiziqtirgan savollarga javob berdi va zarur tavsiyalar berdi. Uchrashuv sermazmun va qiziqarli o'tdi.

